

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
URGANCH FILIALI**

OZODOV JAMSHIDBEK

FOYDALANUVCHILARNING SHAXSIY KABINETLARI
mavzusida

REFERAT

Urganch – 2017 y.

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-§. Foydalanuvchilarning shaxsiy kabinetlarining maqsadi va vazifalari.....	4
2-§. Axborot tizimida foydalanishda foydalanuvchilarning shaxsiy kabinetlari o'rni	5
3-§. Fuqarolarning shaxsiy kabinetlari axborot tizimini loyihasi	12

KIRISH

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida keng foydalanish, sohani rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, davlat boshqaruviga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish O‘zbekistonning istiqboldagi taraqqiyotini belgilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda milliy axborot tizimini shakllantirish, iqtisodiyot va jamiyat faoliyatining barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalari hamda telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish ko‘lamini kengaytirish, elektron hukumatni shakllantirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek mamlakatimizda elektron hukumatni shakllantirishning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi, "Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi, "Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi, "Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi, "Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi, "Elektron to‘lovlar to‘g‘risida”gi, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi.

Elektron hukumat ishtirokchilarining munosabatlarini tartibga soluvchi qonunchilik, davlat xizmatlarini sifatli ko‘rsatilishiga xizmat qiluvchi markazlashgan ma’lumot bazalarini to‘liq shakllantirish, davlat organlarining o‘z ishida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yetarli darajada joriy qilish, aholi va tadbirkorlarga davlat xizmatlarini ko‘rsatishda "bir darcha” tamoyilidan to‘liq foydalanishdagi muammolarni bartaraf etish uchun "Elektron hukumat to‘g‘risida”gi O‘zbekistan Respublikasi Qonuni qabul qilindi.

Mazkur Qonunning asosiy maqsadi davlat xizmatlarini ko‘rsatishda aholi va tadbirkorlar manfaatlarini ko‘zlash, ularga keng qulayliklar yaratish, ularning vaqtlarini tejash, bexuda ovoragarchiliklar va ortiqcha sarf-xarajatlarni

kamaytirish, davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirishdan iborat. Qonun elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishda, shu jumladan, idoralararo elektron hamkorlik doirasida davlat organlarining yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro munosabatlarini tartibga soladi.

1-§. Foydalanuvchilarning shaxsiy kabinetlarining maqsadi va vazifalari

Elektron hukumatning markaziy ma'lumotlar bazalari yagona markazlashtirilgan axborot manbalarini taqdim etuvchi davlat axborot resurslari bo'lib, ularda davlat xizmatlari ko'rsatish hamda idoralararo elektron hamkorlik qilish uchun davlat organlarining asosiy ma'lumotlari umumlashtiriladi va saqlanadi.

Elektron davlat xizmatlari ko'rsatish chog'ida, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilish jarayonida elektron hukumatning markaziy ma'lumotlar bazalaridagi axborotdan foydalaniladi. Elektron davlat xizmatlari ko'rsatish uchun, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilish uchun zarur bo'lgan boshqa axborot davlat organlarining axborot tizimlari va axborot resurslarida saqlanishi mumkin.

Elektron hukumatning markaziy ma'lumotlar bazalarini yaratish, ulardan foydalanish va ularni saqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Markaziy ma'lumotlar bazalari quyidagi vazifalarni ta'minlash maqsadida shakllantiriladi va yuritiladi:

- davlat xizmatlarini ko'rsatish, shu jumladan elektron shaklda;
- davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonini avtomatlashtirish va muddatlarini qisqartirish;
- davlat xizmatlarini ko'rsatishda va idoralararo elektron hamkorlik qilishda zarur bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar to'g'risidagi axborotni saqlash;

- samarali idoralararo elektron hamkorlik qilish, shu jumladan uzatiladigan axborotni qisqartirish hisobiga;
- davlat xizmatlarini ko'rsatishda jismoniy va yuridik shaxslarni identifikatsiyalash;
- jismoniy va yuridik shaxslarning tegishli vakolatli organlarning axborot tizimlarini «Elektron hukumat» tizimining yagona infratuzilmasiga integratsiyalash.

2-§. Axborot tizimida foydalanishda foydalanuvchilarning shaxsiy kabinetlari o'rni

Axborot tizimida foydalanishda foydalanuvchilarning shaxsiy kabinetlari hamda tizimining jismoniy va yuridik shaxslar markaziy ma'lumotlar bazalarini shakllantirish va yuritish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 17 dekabrda 365-sonli qarori bilan tasdiqlangan ««Elektron hukumat» tizimining jismoniy va yuridik shaxslar markaziy ma'lumotlar bazalarini shakllantirish va yuritish tartibi to'g'risida nizom» ga asosan tartibga solinadi.

Idoralararo elektron hamkorlik qilish davlat organlari o'rtasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida ma'lumotlar almashishdan iborat. Markaziy ma'lumotlar bazalari davlat xizmatlarini ko'rsatish va davlat organlari hamda boshqa tashkilotlar (keyingi o'rinlarda vakolatli organlar deb yuritiladi) bilan idoralararo elektron hamkorlik qilish uchun zarur bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar to'g'risidagi axborot manbai hisoblanadigan davlat axborot resurslaridan iborat.

«Elektron hukumat» tizimining jismoniy va yuridik shaxslar markaziy ma'lumotlar bazalarini shakllantirish va yuritish quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

Bosqichlar	Hatti - harakatlar	Subyektlar	Muddatlar
-------------------	---------------------------	-------------------	------------------

I. Tashkiliy chora-tadbirlar			
1-bosqich	«Elektron hukumat» tizimining jismoniy va yuridik shaxslar markaziy ma'lumotlar bazalarini shakllantirish va yuritish jadvalini tasdiqlash	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, IIV, DSQ, Davlat statistika qo'mitasi, DPM	ikki hafta muddatda
2-bosqich	Vakolatli organlar axborot tizimlarining markaziy ma'lumotlar bazalari bilan integratsiyalashuviga qo'yiladigan texnik talablarni tasdiqlash.	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi	ikki oy muddatda
II. Texnik chora-tadbirlar			
3-bosqich	«Elektron hukumat» tizimining jismoniy va yuridik shaxslar markaziy ma'lumotlar bazalarini yuritish, texnik qo'llab-quvvatlash va yanada takomillashtirish.	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi	jadvalga muvofiq
4-bosqich	«Elektron hukumat» tizimining jismoniy shaxslar markaziy ma'lumotlar bazalarini shakllantirish.	IIV, DSQ, DPM, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi	jadvalga muvofiq
5-bosqich	«Elektron hukumat» tizimining yuridik shaxslar	DSQ, Davlat statistika qo'mitasi,	jadvalga muvofiq

	markaziy ma'lumotlar bazalarini shakllantirish.	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi	
6-bosqich	Markaziy ma'lumotlar bazalarining davlat xizmatlari ko'rsatish uchun vakolatli organlarning axborot tizimlari va resurslari bilan integratsiyalashuvi.	Vakolatli organlar, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi	jadvalga muvofiq
7-bosqich	Davlat xizmatlari ko'rsatish va idoralararo elektron hamkorlik qilishda jismoniy va yuridik shaxslarning yagona identifikatorlaridan foydalanish orqali markaziy ma'lumotlar bazalari axborotidan foydalanish.	Vakolatli organlar	doimo
8-bosqich	«Elektron hukumat» tizimi jismoniy shaxslarining markaziy ma'lumotlar bazalarini dolzarblashtirish va yuritish.	IIV, DSQ, DPM, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi	doimo
9-bosqich	«Elektron hukumat» tizimi yuridik shaxslarining markaziy ma'lumotlar bazalarini dolzarblashtirish va yuritish.	DSQ, Davlat statistika qo'mitasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini	doimo

		rivojlantirish vazirligi	
--	--	--------------------------	--

Markaziy ma'lumotlar bazalari jismoniy va yuridik shaxslarning yagona identifikatorlaridan foydalanib vakolatli organlar tomonidan shakllantiriladi va dolzarblashtiriladi. Berilayotganda bir marta generatsiyalanadigan, noyob va o'zgartirilishi mumkin bo'lmagan raqamlar jismoniy va yuridik shaxslarning yagona identifikatorlari hisoblanadi. Shu bilan birga jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami jismoniy shaxsning yagona identifikatori hisoblanadi. Hamda soliq to'lovchining identifikatsiya raqami yuridik shaxsning yagona identifikatori hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning markaziy ma'lumotlar bazalarini shakllantirishda davlat organlari vakolatlari belgilangan.

-doimiy yashash joyining manzili to'g'risidagi ma'lumotlar yuzasidan, vaqtincha ro'yxatda turgan manzili yoki vaqtincha hisobda turish joyi to'g'risidagi ma'lumotlar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi vakolatli organ sifatida olingan.

-STIR to'g'risidagi ma'lumotlar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi vakolatli organ sifatida olingan.

-JSH SHIR to'g'risidagi ma'lumotlar yuzasidan, familiyasi, ismi, otasining ismi to'g'risidagi ma'lumotlar yuzasidan, davlat tilidagi va agar mavjud bo'lsa boshqa tillardagi ma'lumotlar yuzasidan, jinsi to'g'risidagi ma'lumotlar yuzasidan, tug'ilgan sanasi va joyi to'g'risidagi ma'lumotlar yuzasidan, pasport seriyasi, raqami, berilgan joyi va sanasi to'g'risidagi ma'lumotlar yuzasidan, pasport muddatining tugash sanasi to'g'risidagi ma'lumotlar yuzasidan, millati to'g'risidagi ma'lumotlar yuzasidan, fuqaroligi to'g'risidagi ma'lumotlar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat personallashtirish markazi vakolatli organ sifatida olingan.

Yuridik shaxslarning markaziy ma'lumotlar bazalarini shakllantirishda davlat organlari vakolatlari belgilangan.

-to'liq nomi to'g'risidagi ma'lumotlar yuzasidan, qisqartirilgan nomi to'g'risidagi ma'lumotlar yuzasidan, STIR to'g'risidagi ma'lumotlar yuzasidan, davlat ro'yxatiga olingan sana va raqami to'g'risidagi ma'lumotlar yuzasidan, tugatish sanasi to'g'risidagi ma'lumotlar yuzasidan, yuridik manzili to'g'risidagi ma'lumotlar yuzasidan, ustav fondi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar yuzasidan, rahbarga tegishli STIR to'g'risidagi ma'lumotlar yuzasidan, yuridik shaxs faoliyatining holati to'g'risidagi ma'lumotlar yuzasidan, murojaat qilinadigan telefon raqami to'g'risidagi ma'lumotlar yuzasidan, elektron pochta to'g'risidagi ma'lumotlar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi vakolatli organ sifatida olingan.

-yuridik shaxsning kodi (KTUT) to'g'risidagi ma'lumotlar yuzasidan, mulkchilik shaklining kodi to'g'risidagi (MSH) ma'lumotlar yuzasidan, tashkiliy-huquqiy shakl kodi (THSH) to'g'risidagi ma'lumotlar yuzasidan, joylashgan joy hududining kodi to'g'risidagi (MHOBT) ma'lumotlar yuzasidan, yillik statistika hisoboti bo'yicha faoliyat asosiy turining kodi to'g'risidagi (IFUT, XXTUT) ma'lumotlar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi vakolatli organ sifatida olingan.

Jismoniy va yuridik shaxslarning yagona identifikatorlari asosida shakllantiriladigan tegishli vakolatli organlarning axborot resurslarida markaziy ma'lumotlar bazalarida mavjud bo'lmagan va davlat xizmatlari ko'rsatish, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik uchun zarur bo'lgan axborotlar saqlanadi.

Markaziy ma'lumotlar bazalarini yuritish va ulardan foydalanish tartibi. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan markaziy ma'lumotlar bazalarini yuritish amalga oshiriladi. Hamda axborot texnologiyalari va

kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi:

-markaziy ma'lumotlar bazalari dasturiy-apparat kompleksining ishlash jarayonini, texnik kuzatuvini va uni yanada takomillashtirilishini;

-belgilangan tartibda markaziy ma'lumotlar bazalaridagi axborotning saqlanishini, butunligini va axborot xavfsizligini ta'minlash choralari ko'rilishini;

-jismoniy va yuridik shaxslarning yagona identifikatorlari asosida shakllantiriladigan tegishli vakolatli organlar bilan hamkorlik qilgan holda markaziy ma'lumotlar bazalarini shakllantirish va dolzarblashtirish to'g'risidagi jadvallarni tasdiqlanishini;

-markaziy ma'lumotlar bazalarida saqlanadigan axborotlarni jismoniy va yuridik shaxslarning yagona identifikatorlari asosida shakllantiriladigan tegishli vakolatli organlar tomonidan o'z vaqtida dolzarblashtirilishi ustidan nazorat qilinishini;

-markaziy ma'lumotlar bazalaridagi axborotlarning to'liqligini tekshirilishini;

-jismoniy va yuridik shaxslarning yagona identifikatorlari asosida shakllantiriladigan tegishli vakolatli organlar axborot tizimlarining markaziy ma'lumotlar bazalari bilan integratsiyalashuviga qo'yiladigan texnik talablar tasdiqlanishini;

-markaziy ma'lumotlar bazalarida mavjud bo'lgan axborotning takrorlanishini istisno etish maqsadida jismoniy va yuridik shaxslarning yagona identifikatorlari asosida shakllantiriladigan tegishli vakolatli organlarning yangidan tashkil qilinayotgan axborot resurslaridagi ma'lumotlarning tahlili amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Shakllantirilgan markaziy ma'lumotlar bazalarining nusxalarini ulardan foydalanish huquqiga ega bo'lmagan shaxslarga taqdim etish axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huquqiga

kiritilmagan.

Jismoniy va yuridik shaxslarning yagona identifikatorlari asosida shakllantiriladigan tegishli vakolatli organlar tomonidan markaziy ma'lumotlar bazalariga taqdim etiladigan ma'lumotlar taqdim etilayotgan paytda ishonchli, to'liq va dolzarb bo'lishi kerak.

Jismoniy va yuridik shaxslarning yagona identifikatorlari asosida shakllantiriladigan tegishli vakolatli organlar markaziy ma'lumotlar bazalariga ma'lumotlarni «Elektron hukumat» tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali jismoniy va yuridik shaxslarning yagona identifikatorlaridan foydalanib taqdim etadilar. Markaziy ma'lumotlar bazalaridan jismoniy va yuridik shaxslarning yagona identifikatorlaridan foydalanish orqali ma'lumotlarni olishni amalga oshiradilar.

Markaziy ma'lumotlar bazalaridagi ma'lumotlardan foydalanganda faqat «Elektron hukumat» tizimi foydalanuvchilarini identifikatsiyalashning yagona axborot tizimi orqali jismoniy va yuridik shaxslarni identifikatsiyalash amalga oshiriladi.

«Elektron hukumat» tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi yordamida davlat xizmatlari ko'rsatishda va idoralararo elektron hamkorlik qilishda markaziy ma'lumotlar bazalaridagi ma'lumotlardan foydalanish amalga oshiriladi.

Davlat xizmatlari ko'rsatishda jismoniy va yuridik shaxslardan markaziy ma'lumotlar bazalari va jismoniy va yuridik shaxslarning yagona identifikatorlari asosida shakllantiriladigan tegishli vakolatli organlarning axborot resurslarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni talab qilish taqiqlanadi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning yagona identifikatorlari orqali markaziy ma'lumotlar bazalarida mavjud bo'lmagan axborotning saqlanishini ta'minlovchi davlat axborot resurslarini yaratiladi.

3-§. Fuqarolarning shaxsiy kabinetlari axborot tizimini loyihasi

Foydalanuvchini ro'yxatdan o'tkazish xizmati va shaxsni tasdiqlash.

Ro'yxatdan o'tkazish maqsadida foydalanuvchilar Yagona identifikatsiya va autentifikatsiya tizimida, hamda foydalanuvchilarni shaxsni tasdiqlashda, Davlatlararo elektron aloqa sistemasi elektron servis yaratilgan va nashr etilgan (foydalanuvchi ro'yxatdan o'tkazish xizmati Yagona identifikatsiya va autentifikatsiya sistemasi). Xizmat operatorga kalit berishda foydalanish uchun atalgan. Bu xizmat YAIT quidagi funksiyalarni qo'llab quvvatlaydi:

- ro'yxatdan o'tkazishda yangi foydalanuvchini hisob yozuvini tasdiqlashda tashabuskorlik ko'rsatadi YAIT ga foydalanuvchi ro'yxatdan o'tkazish arizasini identikator bilan beradi hamda birinchi tizimga kirish uchun foydalanuvchi parolni ham beradi;

- Yagona identifikatsiya va autentifikatsiya tizimi foydalanuvchisini hisob yozuvini tasdiqlash (shaxsni tasdiqlash);

- tekshirilgan ruxsatni jarayonni qayta tiklashda yoki YAIT ga foydalanuvchi ro'yxatdan o'tkazish arizasini identikator bilan birinchi tizimga kirish uchun foydalanuvchi parolni ham beradi;

- bajarilayotgan jarayonni holatini tekshiradi (foydalanuvchi ro'yxatdan o'tkazish vaqtida ruxsatni qayta tiklashda).

Elektron xizmatga ruxsat olish. Har bir idora tashkilot YAIT ni dastur ko'rinishidan foydalanish uchun ro'yxatdan o'tkazishda foydalanuvchi bajarishi kerak:

- 1 . Idora va tashkilot ro'yxat yozuvini yaratishda ariza berish va yaratishda huquqi bor

- 2 . O'zing Identifikatsiya tizimi ishlashida YAIT ro'yxatdan o'tkazish foydalanuvchilari funksiyasi ko'rilishi kerak.

- 3 . Identifikatsiya tizimi ishlashi uchun shifrlangan kalitlar va ularni

kvalifikatsiyalangan sertifikatga chiqarish:

- Sertifikat yuridik shaxsga chiqqan bo'lishi kerak (Asosiy ro'yhatdan o'tish raqami qarash kerak va tashkilotning ismiga).

- Sertifikat akkreditatsiyadan o'tgan bo'lishi lozim.

-eksplutatsiya xujjati Identifikatsiya tizimi belgilaydi buning uchun konteyner kaliti talab etiladi.

4. Davlatlararo elektron aloqa sistemasida (DEAS talabi asosida Identifikatsiya tizim ro'yhatdan o'tkazish arizasini beradi) Identifikatsiya tizimida ro'yxatga olinadi.

5. Davlatlararo elektron aloqa sistemasida identifikatsiya tizimi olish uchun Yagona Identifikatsiya va Autentifikatsiya Tizimin xizmatiga kirish huquqi bor .

6. Yagona Identifikatsiya va Autentifikatsiya Tizimi bilan Identifikatsiya tizimida ro'yxatdan o'tiladi.

7. Identifikatsiya tizimga ulanish testli tashqi integrallashgan Yagona Identifikatsiya va Autentifikatsiya Tizimida qayta ishlashi uchun ro'yxatdan o'tiladi.

Foydalanuvchi ro'yxatdan o'tkazishsini umumiy sxemasi elektron xizmat yoqilishi bilan foydalaniladi .

1. Identifikatsiya Tizimi ro'yxatdan o'tkazish uchun so'rov yuboradi foydalanuvchi shaxsiy ma'lumotlarini hamda qo'shimcha parametrlar qatorini ham o'z ichga oladi.

2. Yagona Identifikatsiya va Autentifikatsiya Tizimiga foydalanuvchi ro'yxatdan o'tkazish arizasini identikator bilan birinchi marta tizimga kirish uchun foydalanuvchi parolni ham beradi;

3. YAIT dagi foydalanuvchilarni ma'lumotlarini teshkiruvdan o'tkazadi hamda agar tekshiruv muvofiqiyatli o'tsa u holda hisob yozuvi ro'yxatdan o'tkaziladi.

4. Identifikatsiya Tizimi ro'yxatdan o'tish holatini tekshirishni ruxsat beruvchi sifatida kiruvchi foydalanuvchilarni ro'yxatdan o'tkazuvchi ariza parametrik ko'rsatuvchi identifikator usuli chaqirishi kerak.

5. Yagona Identifikatsiya va Autentifikatsiya Tizimi foydalanuvchi ro'yxatdan o'tish holatini qaytaradi.




Рисунок 16 – Общая схема регистрации пользователя

Ro'yxatdan o'tishga so'rov. Ro'yxatdan o'tish uchun yangi tasdiqlanuvchi foydalanuvchi hisob yozuvi Yagona Identifikatsiya va Autentifikatsiya Tizimida "tasdiqlanuvchi hisob yozuvni ro'yxatdan o'tish YAITda birinchi kirish uchun parol bilan berilgan" uslubni chaqirishi kerak.

Uslub sifatida kiruvchi parametrlar ro'yxatdan o'tuvchi foydalanuvchini

shaxsiy ma'lumotlarni oladi, jarayonni tasdiqlash hamda ma'lumotlarni yuborish uslubi parol birinchi tizimga kirish uchun kerak. Yuborishni quyidagi usullari bo'lishi mumkin:

- elektron pochtaga yuborish (sharti shuki xizmat manzilini ko'rsatilgan foydalanuvchini shaxsiy ma'lumotlari orasida chaqirish);
- mobil telefon nomerga yuborish(sharti xizmatni chaqirish vaqtida foydalanuvchini shaxsiy ma'lumotlari orasida nomer ko'rsatilgan);
- javobga so'rovda ro'yxatdan o'tish haqida yuborish;
- parol yuborish talab qilinmaydi (masalan agar foydalanuvchi elektron izmodan foydalangan holda kirmoqchi bo'lsa).

Uslub sifatida kiruvchi parametrlar jarayonni (muvofiqiyatli yoki muvofiqiyatsiz) bajarilishida natija qaytadi. Muvofiqiyatli tugashida yuborilgan xabarda foydalanuvchi ro'yxat o'tishidagi ariza identifikator berilgan bo'ladi (requestId), modomiki foydalanuvchini verifikatsiya ma'lumotlari asinxron rejimda amalga oshadi hamda sistemaga birinchi kirish uchun parol (agar parolni yuborishga muvofiq ko'rsatiladi).

Agar muvofiqiyatsiz tugasa uslub xato qaytaradi xatoga mos tekstli yozuv va kod chiqaradi.

Agar ro'yxatdan o'tishga ariza muvofiqiyatli yaratilsa, YIAT (Yagona Identifikatsiya va Autentifikatsiya Tizimi) foydalanuvchini ko'rsatilgan so'rov kanal aloqasiga muvofiqiyatli tekshiruv haqida va kirish imkoniyatlari hisob yozuvida ko'rsatiladi

So'rovni bajarilish holatini tekshirish. IT ro'yxatdan o'tish holatini tekshirish uchun “ jarayon paytida ariza holatini tekshirish” uslubini chaqirish kerak, uslub kiruvchi parametrlar sifatida ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchi ariza identifikatorini (requestId) qabul qilsin.Tizim YAIT xizmatini chaqirishni amalga oshirsin requestId bilan foydalangan holda faqat so'rov orqali ma'lumotlarni olishi mumkin bo'ladi bu unga tabusskorlikni beradi.

Javob xabarni foydalanuvchini ro'yxatdan o'tish jarayonini bajarilishini holatini shu ma'lumotni uzatadi.

Foydalanuvchini shaxsini tasdiqlash. Foydalanuvchini ro'yxatdan o'tish xizmati, DEAS (Davlatlararo Elektron Aloqa Sistemasi) da ro'yxatdan o'tgan, markaziy xizmat ko'rsatuvchi operator oddiy elektron imzo kalitini berish orqali shaxsni tasdiqlash imkonini taminlaydi. Buning uchun "fuqaroni shaxsni tasdiqlash yoki YAIT foydalanuvchi"shu xizmat usulini chaqirish kerak.

O'zingizni hisob yozuvingizni tasdiqlash uchun foydalanuvchi tekshirilgan yoki tekshirilmagan hisob yozuvni oldindan yaratishi kerak. Bu mobil telefon nomeri yoki elektron pochta bor har bir foydalanuvchiga YAIT ning Veb – interfeysidan foydalanish imkonini beradi. Tasdiqlangan hisob yozuvi tasdiqlanmagan hisob yozuvli foydalanuvchini yaratadi natijada davlat ma'lumot markazida foydalanuvchini muvaffaqiyatli tekshiriladi shaxsni tasdiqlash ruxsatli usullardan biri,xususan murojaat yordamida markaziy xizmat ko'rsatishlardan biri hisoblanadi.hisob yozuvi ro'yxatdan o'tishda markaziy xizmat ko'rsatishda "YAIT da tasdiqlangan hisob yozuvidan ro'yxatdan o'tishda bilan birinchi kirishda parol berish " usuli yordamida darrov foydalanuvchi tasdiqlangan hisob yozuvini yaratadi.

Kiruvchi parametr usuli sifatida shaxsni tasdiqlashga to'g'rilamoq,hujjat,shaxsni tasdiqlash hamda qo'shimcha parametrlar qatori ma'lumotini qabul qilish.Xususan bo'lish imkoni bo'lgan kontakt turi (email yoki mobil telefon nomer) tasdiqlangan hisob yozuvini ariza identifikatsiyadan biri yuborilgan bo'lishi mumkin. Kiruvchi parametr usuli sifatida bajarilgan jarayon natijasini qaytaradi.

Foydalanuvchi hisob yozuviga kirishni qayta tiklash. Foydalanuvchi ro'yxatdan o'tish xizmati DEAS da ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchini tekshirilgan yoki tasdiqlangan hisob yozuvini markaziy xizmat ko'rsatuvchi operator oddiy elektron izmoni bergan holda kirishni qayta tiklash imkoniyati

taminlaydi. Kirishni qayta tiklash uchun “YAIT hisob yozuviga kirishni qayta tiklash bilan birinchi kirishda parol berish” shu xizmat usulni chaqirishi kerak.

Kiruvchi parametr usuli sifatida foydalanuvchini shaxsiy ma'lumotlarini oladi, jarayonni o'tkazish uchun kerak hamda bu yo'l bilan tizimga kirish uchun parol berishi mumkin.

Parolni berish uchun bu usulning imkoniyatlari bor bo'lib bular quyidagilar hisoblanadi:

- elektron pochtaga pochta manziliga yuborish (sharti xizmat chaqiruvda manzil foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlari orasida ko'rsatilgan bo'lishi kerak);

- mobil telefon nomerga yuborish (sharti xizmat chaqiruvda mobil telefon nomer foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlari orasida ko'rsatilgan bo'lishi kerak);

- kirishni qayta tiklash haqidagi so'rovga javobni yuborish.

Kiruvchi parametr usulida sifatida bajarilgan jarayon (muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz) natijasini qaytaradi. Muvaffaqiyatli yakunlanishida javob xabarida ichida kirishni qayta tiklashni ariza identifikatori (requestId), hamonki kirishni qayta tiklashda shu foydalanuvchi verifikatsiyasini asinxron rejimda hamda parol sistemaga kirish uchun amalga oshiradi. Muvaffaqiyatsiz tugasa usul xato qaytaradi kod va test yozuvida xato chiqaradi.

Agar kirishni qayta tiklash arizasi muvaffaqiyatli bajarilsa YAIT foydalanuvchiga tekshiruv va hisob yozuviga kirish imkoni haqidagi muvaffaqiyatli xabar ko'rsatilgan aloqa kanali orqali yo'llaydi. Agar foydalanuvchi ma'lumotlari arizada ko'rsatilgan mobil telefon nomeri va/yoki email address tekshiruvdan o'tmasa, YAIT foydalanuvchiga bu haqda ogohlantiradi bu keyin hisob yozuvga kirishni qayta tiklash amalga oshirmaydi.

Mutaxassis markaziy xizmat ko'rsatuvchi operator oddiy elektron imzoni

kalitini bersa kirishni qayta tiklash holatini teshkirish imkoni paydo bo'ladi. Buning uchun IT operatori oddiy elektron imzo kalitini berishi uchun "arizani bajarish holatini tekshirish" usulini chaqirish kerak bo'ladi, kiruvchi parametr sifatida usul kirishni qayta tiklashdagi ariza identifikatorini (requestId) oladi. Tizim YAIT xizmatini chaqirishni amalga oshiradi requestId bilan foydalangan holda faqat shu so'rov orqali ma'lumotni olishi mumkin bo'ladi. Buni o'zi amalga oshiradi.

Javob xabarda shu jarayon bajarilishi foydalanuvchi hisob yozuvga kirishni qayta tiklash holatidagi ma'lumot uzatiladi

Xizmatdan foydalanish tavsiyanomasi. Foydalanuvchiga murojaat vaqtida markaziy xizmat ko'rsatishda murojaatning asosiy maqsadi aniqlashtirish tavsiya qilinadi. Asosiy yozilishi 1 jadvalda berilgan.

Jadvalda foydalanuvchini murojaat maqsadlari ko'rsatilgan

№	Murojaat maqsadlari	Tavsiya etiladigan harakatlar
1	YAIT da (foydalanuvchi hisob yozuvini tasdiqlash arizasini to'ldirmagan)ro'yxatdan o'tish	Chaqirilgan usul "YAIT bilan birinchi kirish uchun berilgan parol tasdiqlangan hisob yozuvini ro'yxatga olmoq"YAIT xizmati
2	YAIT hisob yozuvni tasdiqlash(foydalanuvchi hisob yozuvini tasdiqlash arizasini to'ldirgan, ariza tekshirilgan)	Chaqirilgan usul "Fuqaro shaxsini tasdiqlash yoki YAIT da ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchi"YAIT xizmati
3	YAIT da (foydalanuvchi ishonchi komil emas, aniq hisob yozuvini tasdiqlash arizasini to'ldirgan va u tekshiruvdan muvaffaqiyatli o'tgan)ro'yxatdan o'tish	Chaqirilgan usul "YAIT bilan birinchi kirish uchun berilgan parol tasdiqlangan hisob yozuvini ro'yxatga olmoq "YAIT xizmati. Foydalanuvchi ogohlantirish kutilmoqda chunki hisob yozuvga

		birinchi marta ro'yxatdan o'tmoqchi
4	Aniqlamoq, qaysi sabab bilan YAIT da muvaffaqiyatli o'tmagan.	Chaqirilgan usul "hisob yozuv ro'yxatdan o'tishda arizani tekshirish" uchun xato qismini tushuntirish va oxirgi chaqirilgan usul "YAIT da tasdiqlangan hisob yozuv ro'yxatdan o'tgan va birinchi kirish uchun berilgan parol " so'rov parametrlar tuzatishlari bilan berilgan.
5	Kirishni qayta tiklash (foydalanuvchi ilgari YAIT da ro'yxatdan o'tgan)	Chaqirilgan usul "foydalanuvchi hisob yozuviga kirishni qayta tiklash"YAIT xizmati

Parol berishni tanlash usuli bilan tavsiya etilishi. YAITda tasdiqlangan hisob yozuvida ro'yxatdan o'tish vaqtida parol uchun foydalanuvchini mobil telefon nomeri birinchi kirishida yuborish tavsiya etiladi, agar foydalanuvchi oddiy ro'yxatdan o'tkaziladi. Agar ro'yxatdan o'tkazish foydalanuvchi elektron imzosi bilan amalga oshirilsa unda parolni yuborish tavsiya etilmaydi.

Agar foydalanuvchi mobil telefon nomerga ega bo'lmasa unda faqat parolni birinchi kirish uchun elektron pochtaga yuborishi mumkin bo'ladi.

Agar foydalanuvchi mobil telefon nomerga ega bo'lmasa va hech qanday elektron pochtaga ham ega bo'lmasa yoki u aniq markaziy xizmat ko'rsatishdan unga parol berishini so'raydi, birinchi kirish uchun parol markaziy xizmat ko'rsatish mutaxassisidan bevosita berilishi mumkin.

Foydalanuvchi ma'lumotlarini saqlash tavsiya etiladi. Foydalanuvchiga ro'yxatdan o'tishida so'rovni tuzilishini saqlash tavsiya etiladi:

- Ro'yhatdan o'tuvchi foydalanuvchini ariza identifikatori (requestId);
- Hamma ma'lumotlar yuborilgan usul "birinchi kirish uchun berilgan parol bilan YAITda tasdiqlangan hisob yozuvi ro'yxatdan o'tkazish".

Agar foydalanuvchi ro'yxatdan o'tish vaqtida xato (masalan, elektron adres manzili bo'yicha), xaqida xabardor qilinadigan bo'lsa vaziyatni oydinlashtirish uchun unda o'zing markaziy xizmat ko'rsatishiga qaytish imkoni bo'ladi. Bu vaziyatda ariza identifikatori (requestId) va usul "hisob yozuvini ro'yxatdan o'tishda arizani tekshirish" muammo haqida qo'shimcha ma'lumot olishga imkon beradi. Xususan agar so'rov vaqtida barmoq izi bo'ladigan bo'lsa unda markaziy xizmat ko'rsatish foydalanuvchini ma'lumotlarini saqlashi huquqiga ega, bu to'g'irlangan hisob yozuvini ro'yxatdan o'tish arizani yuborish imkoni bo'ladi.